

RAQAMLI ESTETIKA: FALSAFIY TAHLILI

Mavludaxon Jo‘raboy qizi Jo‘rayeva

Namangan davlat universiteti magistranti

Elektron manzil: jurayevamavludakhon@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0008-9672-0948>

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18980654>

Annotatsiya: Mazkur maqolada XXI asrda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida yuzaga kelayotgan yangi estetik idrok shakllari va ularning falsafiy mohiyati tadqiq etiladi. Raqamli estetika zamonaviy insonning go‘zallikni idrok etish, baholash va estetik ijod jarayoniga texnologik vositalarning ta‘sirini chuqur tahlil qilishga qaratilgan muhim ilmiy yo‘nalish sifatida talqin etiladi. Tadqiqot doirasida estetik tafakkurning an‘anaviy kategoriyalari — go‘zallik, uyg‘unlik, fojeaviylik va kulgililik — raqamli va virtual muhitda qanday transformatsiyaga uchrayotgani ochib beriladi. Maqolada tarixiy-qiyosiy, gnoseologik hamda sistemali yondashuv metodlaridan foydalanilib, raqamli makonda estetik tajribaning o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotning nazariy asosini J. Baudrillardning simulyakr va giperreallik haqidagi qarashlari, J. Lipovetskiyning postmodern vizuallik konsepsiyasi hamda Sh. Turkle tomonidan ilgari surilgan “raqamli inson” g‘oyasi tashkil etadi. Ushbu falsafiy yondashuvlar orqali raqamli obrazlar va vizual shakllarning estetik mazmuni, ularning reallik bilan munosabati yoritib beriladi. Tadqiqot natijalari raqamli estetika tushunchasining zamonaviy falsafa va madaniyatshunoslikdagi o‘rnini aniqlashga, texnologik muhitda shakllanayotgan estetik qadriyatlarni baholash mezonlarini belgilashga xizmat qiladi. Maqola raqamli madaniyat, falsafa va san‘at muammolari bilan shug‘ullanuvchi tadqiqotchilar uchun nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: estetika, raqamli estetika, falsafa, texnologiya, simulyakrlik, virtual reallik, go‘zallik, madaniyat, gnoseologiya.

Abstarct: This article explores new forms of aesthetic perception emerging in the twenty-first century as a result of the rapid development of digital technologies and examines their philosophical foundations. Digital aesthetics is considered as an important field that analyzes the profound impact of technological tools on the processes of perceiving, evaluating, and creating beauty in contemporary society. The study focuses on the transformation of traditional aesthetic categories—beauty, harmony, the tragic, and the comic—within digital and virtual environments. The research employs historical-comparative, epistemological, and systemic approaches to identify the specific features of aesthetic experience in the digital realm. The theoretical framework of the article is based on Jean Baudrillard’s theory of simulacra and hyperreality, Gilles Lipovetsky’s concept of postmodern visuality, and Sherry Turkle’s idea of the “digital self.” These philosophical perspectives allow for a deeper understanding of the aesthetic nature of digital images and their relationship to reality. The findings of the study contribute to defining the place of digital aesthetics in contemporary philosophy and cultural studies, as well as to establishing criteria for evaluating technologically mediated beauty. The article is of theoretical and practical relevance for scholars interested in philosophy, aesthetics, and digital culture.

Keywords: aesthetics, digital aesthetics, philosophy, technology, simulacra, virtual reality, beauty, culture, gnoseology.

Аннотация: В данной статье исследуются новые формы эстетического восприятия, формирующиеся в XXI веке в результате стремительного развития цифровых технологий, а также их философская сущность. Цифровая эстетика рассматривается как важное направление, изучающее глубокое влияние технологических средств на процесс осмысления, оценки и создания красоты в современном обществе. В рамках исследования анализируется трансформация традиционных эстетических категорий — красоты, гармонии, трагического и комического — в цифровой и виртуальной среде. В статье применяются историко-сравнительный, гносеологический и системный методы, позволяющие выявить специфику эстетического опыта в условиях цифровой реальности. Теоретической основой исследования послужили концепция симулякров и гиперреальности Ж. Бодрийяра, идеи постмодернистской визуальности Ж. Липовецкого, а также концепция «цифрового человека», предложенная Ш. Тёркл. На основе данных философских подходов раскрывается эстетическая природа цифровых образов и их соотношение с реальностью. Результаты исследования способствуют

“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral

определению места цифровой эстетики в современной философии и культурологии, а также формированию критериев оценки технологически опосредованной красоты. Статья представляет интерес для исследователей в области философии, эстетики и цифровой культуры.

Ключевые слова: эстетика, цифровая эстетика, философия, технология, симулякр, виртуальная реальность, красота, культура, гносеология.

Kirish

XXI asrning boshlarida insoniyatning barcha sohalarida kuzatilayotgan raqamlashtirish jarayoni nafaqat iqtisodiy va ijtimoiy hayotni, balki madaniyat, san’at hamda estetik tafakkurni ham tubdan o‘zgartirib yubordi. Bugungi kunda estetik idrok va badiiy tajriba tobora ko‘proq raqamli muhitda shakllanmoqda: sun’iy intellekt yordamida yaratilgan san’at asarlari, virtual galereyalar, raqamli moda, NFT san’ati va metavers olamidagi estetik voqeliklar shular jumlasidandir. Shu bois raqamli estetika masalasi zamonaviy falsafaning eng dolzarb mavzularidan biriga aylandi.

Adabiyotlar tahlili

Raqamli estetikaning falsafiy ildizlarini tusunish uchun, avvalo, “klassik estetika” tamoyillarini belgilab bergan nemis faylasufi Immanuel Kantning qarashlariga murojaat qilgan holda, uning mashhur asari - “Kritik der Urteilskraft” ya’ni “Hukm kuchi tanqidi” asarini murojaat qilingan. Bu asar estetika va san’at falsafasining zamonaviy talqinlariga asos bo‘lgan. Raqamli estetika zamonaviy falsafaning eng dinamik yo‘nalishlaridan biri sifatida insonning texnologiya bilan estetik o‘zaro ta’sirini o‘rganadi. Bu borada fransuz faylasufi Jil Lipovetskiy asarlari alohida ahamiyat kasb etadi. U o‘zining 2013 yilda J. Serroy bilan hammualliflikda yozgan “L’esthetisation du monde” ya’ni “Dunyoning estetizatsiyasi” asarida postmodern jamiyatda go‘zallik, moda va san’atning o‘zgaruvchan tabiati haqida chuqur falsafiy tahlil bergan. Rus-amerikalik Madaniyatshunos va media faylasufi Lev Manovich esa 2001 yilda nashr qilingan “The language of new media” kitobida raqamli madaniyat va estetikaning falsafiy asoslarini belgilab bergan. Manovich o‘z tadqiqotlarida “yangi media tili” tushunchasini ishlab chiqib, unga ko‘ra raqamli texnologiyalar natijasida inson dunyoni idrok etish, ifodalash va estetik baholash usullari tubdan o‘zgaradi.

Tadqiqotning metodologiyasi: dialektik yondashuv, falsafiy-tahliliy usul, komparativ tahlil va zamonaviy axborot texnologiyalari falsafasining konseptual g‘oyalariga asoslanadi.

Mazkur mavzu bo‘yicha olib borilgan tahlillar raqamli estetikasi faqat san’atshunoslik nuqtai nazaridan emas, balki falsafiy, ijtimoiy va ontologik jihatdan ham chuqur o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi. Chunki raqamli muhit insonning borliqini estetik idrok etish shakllarini, go‘zallik mezonlarini hamda ijodiy tafakkur mexanizmlarini tubdan o‘zgartirmoqda.

Raqamli estetika tushunchasining nazariy asoslari

Estetika fani qadimdan insonning go‘zallikni idrok etish qobiliyati, san’at mohiyati va badiiy ijod jarayonining falsafiy asoslarini o‘rganib kelgan. Tabiatdagi uyg‘unlik, san’atdagi nafislik va inson ruhining yuksak ifodasi - bularning barchasi estetika tushunchasiga borib taqaladi. Estetikaning asosiy vazifasi - inson va go‘zallik o‘rtasidagi aloqani tushuntirish, go‘zallik mezonlarini belgilash va san’at orqali inson ruhiy olamini boyitishdir.

“Estetika” atamasi yunoncha “aisthesis” - “sezish”, “idrok etish” so‘zidan olingan bo‘lib, u insonning borliqini hissiy qabul qilish shaklini bildiradi. Estetika fani go‘zallikning tabiati, san’atning mohiyati va insonning estetik didi qanday shakllanishini o‘rganadi. U faqat tashqi go‘zallikni emas, balki ichki uyg‘unlik, mazmun va shakl birligi, ruhiy mukammallikni ham o‘z ichiga oladi. Falsafada bu tushuncha XVIII asrda A. Baumgarten tomonidan ilmiy fan sifatida shakllantirilgan. U 1750 yilda “Aesthetica” asarini yozib, estetikasi “seziladigan bilim haqidagi fan” deb ta’riflagan.

Estetika nafaqat san’atda, balki inson faoliyatining barcha sohalarida muhim ahamiyatga ega. Me’morchilik, dizayn, ta’lim, madaniyat, hatto texnologiya sohalarida ham estetik yondashuv muhim rol o‘ynaydi. Masalan, ta’lim tizimida estetik tarbiya o‘quvchilarda go‘zallikni qadrlash, did bilan fikrlash, ijodiy yondashuvni shakllantiradi. Bundan tashqari, estetik did insonning axloqiy madaniyati bilan chambarchas bog‘liq - go‘zallikni tushunadigan inson yovuzlikka, qo‘pollikka moyil bo‘lmaydi.

Ammo XXI asrda bu tushunchalar yangi bosqichga – raqamli bosqichga ko‘tarildi. Raqamli estetika insonning estetik tajribasini sun’iy intellekt, algoritmik tizimlar va virtual muhit bilan uzviy bog‘liq holda talqin qiladi. Shu jihatdan u klassik va zamonaviy estetika o‘rtasida ko‘prik vazifasini bajaradi.

Raqamli san’at estetikasi (ingl. Aesthetics of digital art) - san’at falsafasi, media nazariyasi va san’atshunoslik sohasidagi zamonaviy estetika yo‘nalishi.[12] Klassik estetik nazariyalarni qayta ko‘rib chiqishni hisobga olgan holda raqamli (kompyuter) san’atning estetik mazmunini o‘rganishga

“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral

qaratilgan. Klassik estetik nazariyalardan farqli o‘laroq, ushbu san‘at turini tahlil qilishda mediafilosofik, Postmodern yondashuv qo‘llaniladi.

Raqamli estetika - bu raqamli texnologiyalar ta‘sirida san‘at va go‘zallik haqidagi tasavvurlarni o‘zgarishini tadqiq qiluvchi falsafiy yo‘nalishdir. U nafaqat yangi texnologik vositalarning badiiy ijodga qo‘shgan hissasini, balki insonning raqamli estetik tasavvuri, estetik did mezonlari va badiiy qadriyatlarining transformatsiya hodisasi hamdir.

Klassik estetika Immanuel Kant, Fridrix Gegel va Artur Shopenhauerlarning asarlarida go‘zallikni ob‘ektiv yoki sub‘ektiv mezonlar asosida izohlashga uringan bo‘lsa, raqamli estetika bu mezonlarni qayta talqin qiladi. Masalan, raqamli muhitda go‘zallikni inson emas, balki algoritmlar yaratadi; shu sababli badiiylikning mezoni texnologik aniqlik va koding estetikasi bilan belgilanadi. Bu hodisa “postestetik” davr deb ataluvchi yangi bosqichni shakllantiradi.

Raqamli estetika tushunchasini birinchi bo‘lib g‘arb olimlari orasida 1990-yillarda Lev Manovich, Edmond Couchot, Oliver Grau kabi tadqiqotchilar ilmiy muomalaga kiritganlar. Ularning fikricha, raqamli san‘at va raqamli madaniyatda estetik tajriba asosan interaktivlik, virtuallik, simulyatsiya, kodlashtirish kabi xususiyatlar bilan belgilanadi. Bu jarayonda inson nafaqat tomoshabin, balki faol ishtirokchi, hamijodkor sifatida namoyon bo‘ladi.

Raqamli estetikada muhim falsafiy muammo - bu avtentiqlik masalasidir. An‘anaviy san‘atda asarning asl nusxasi va uning ko‘chirmasi o‘rtasida aniq farq mavjud edi. Ammo raqamli texnologiyalar davrida bu farq yo‘qolmoqda: har bir raqamli asar cheksiz nusxalanadi, tahrir qilinadi va qayta ishlanadi. Shu sababli, Valter Benjamin ilgari surgan “san‘at asarining aurasini” tushunchasi raqamli davrda o‘z mohiyatini yo‘qotadi. Buning o‘rniga interaktiv auratiklik - ya‘ni foydalanuvchi bilan doimiy o‘zaro aloqada bo‘lish orqali yuzaga keladigan yangi estetik tajriba paydo bo‘ladi.

Raqamli estetikaning yana bir nazariy jihati - bu multimodal ifoda tamoyilidir. Raqamli san‘atda tovush, tasvir, matn, grafika, hatto sensor elementlar bir tizimda uyg‘unlashadi. Bunday sintez jarayoni badiiy ifodaning yangi shakllarini vujudga keltiradi. Masalan, raqamli musiqiy installyatsiyalar, 3D animatsiyalar yoki interaktiv teatr sahnalari inson sezgilari orqali to‘liq estetik tajriba yaratadi.

Demak, raqamli estetika - bu insonning estetik faoliyati va texnologik tafakkuri o‘rtasidagi yangi dialektik birlikni ifodalovchi falsafiy yo‘nalishdir. U go‘zallik, badiiylik va ijodiylik tushunchalarini raqamli olam qonuniyatlari asosida qayta talqin etadi.

Estetika va texnologiya o‘zaro munosabatining falsafiy talqini

Martin Xaydegger o‘zining “Texnika haqida savol” asarida texnologiyani “borliqning ochilish usuli” sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, texnologiya insonni tabiat ustidan hukmronlikka emas, balki borliqni yangi ko‘rinishda idrok etishga undaydi. Shu nuqtai nazardan, raqamli estetika insonning texnik vositalar orqali olamni estetik tarzda “qayta yaratish” jarayonidir.

XXI asrda texnologiya va estetika uyg‘unligi ayniqsa “raqamli madaniyat” tushunchasida yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Raqamli madaniyatning o‘ziga xos jihati shundaki, unda estetik qadriyatlar sun‘iy intellekt (AI), big data va algoritmik dizayn bilan birlashadi. Masalan, sun‘iy intellekt tomonidan yaratilgan rassomlik yoki musiqiy asarlar inson ijodkorligiga o‘xshash estetik tajriba uyg‘otadi, ammo ularning manbai inson emas, algoritmdir. Shu bois “yaratuvchilikning subyektini” masalasi raqamli estetikada asosiy falsafiy muammoga aylanmoqda.

Fransuz faylasufi Gi Lipovetski “go‘zallik algoritmik qadriyatga aylangan davrda biz estetikaning yangi bosqichiga o‘tdik” deb yozadi. Ya‘ni, bugungi kunda go‘zallik mezoni inson didi bilan emas, balki raqamli muhitning dizayn standartlari, interfeys qulayligi va vizual kodlar uyg‘unligi bilan belgilanadi. Bu holat estetikani demokratiyalashtiradi - har bir foydalanuvchi go‘zallikni yaratishda bevosita ishtirok etadi.

Raqamli estetika shuningdek, texnologiyaning inson ruhiy olamiga ta‘sirini ham o‘rganadi. Sherri Turkle o‘zining “Alone Together” asarida “inson raqamli dunyoda o‘zini algoritmik niqoblar orqali ifoda etadi” deya yozadi. Bu holat “virtual men” fenomeni orqali estetik tajribaning individuallashtirilishini anglatadi. Inson o‘zining onlayn obrazini yaratish jarayonida ijodkorlik va o‘zini anglash imkoniyatini topadi, shu bilan birga, haqiqiylikdan uzoqlashadi.

Raqamli estetika va texnologiyaning o‘zaro ta‘siri nafaqat falsafiy, balki axloqiy savollarni ham tug‘diradi. Masalan, algoritmlar tomonidan boshqariladigan estetik tajriba inson erkinligini cheklaydimi? Insonning didi mashina tomonidan shakllantirilsa, bu estetik qadriyatlarining sun‘iylashuviga olib keladimi? Ushbu savollar postgumanizm va transgumanizm nazariyalari doirasida tahlil qilinmoqda.

“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral

Texnologiyaning san‘at bilan uyg‘unlashuvi shuningdek, “kod estetikasi” deb ataluvchi yangi tushunchani ham paydo qildi. Lev Manovich fikricha, “zamonaviy san‘atning asosi endi pigment yoki tovush emas, balki koddir”. Demak, bugungi kunda estetika nafaqat shakl va mazmun uyg‘unligini, balki dasturlash mantig‘ining go‘zalligini ham o‘z ichiga oladi.

Raqamli estetikaning gnoseologik va antropologik jihatlarini

Raqamli estetika nafaqat texnologik yoki madaniy jarayon, balki gnoseologik (bilish nazariyasi bilan bog‘liq) va antropologik (inson mohiyatini o‘rganuvchi) hodisa sifatida ham muhim ahamiyatga ega. Chunki raqamli muhitda insonning borliqni bilish, sezish va idrok etish usuli o‘zgaradi. Estetik tajriba endilikda nafaqat sezgi orqali, balki raqamli interfeys, algoritmik filtrlar va sun‘iy intellekt vositalari orqali shakllanadi.

Antropologik tahlil: “Raqamli inson” fenomeni

Raqamli estetika insonni yangi antropologik holatga olib kirdi - bu “raqamli inson” (digital human) fenomenidir. Raqamli inson - bu o‘z estetik va madaniy tajribasini raqamli muhitda, sun‘iy obrazlar orqali shakllantiruvchi mavjudotdir. Sherri Turkle ta’kidlaganidek, “inson endi o‘zini tarmoqdagi profili orqali tanitadi, shu obraz orqali estetik qiyofasini yaratadi”.

Raqamli estetikada inson o‘zini yaratish ya’ni “self-creation” jarayoni badiiy aktga aylanadi. Masalan, “selfie” madaniyati, ijtimoiy tarmoqlardagi estetik vizuallik, avatarlar va virtual identifikatsiya insonning estetik o‘zini ifoda etish shakliga kiradi. Shu bois raqamli estetikaning antropologik jihati insonning “men”i bilan “raqamli men”i o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni o‘rganadi.

Zamonaviy tadqiqotchilarning fikricha, raqamli inson o‘z estetik ehtiyojlarini algoritmik jarayonlar orqali qondiradi. Bu jarayonda inson hissiy bilishning o‘rnini vizual interfeys, matematik tuzilma va sun‘iy tasvir egallaydi. Shuning uchun antropologik nuqtai nazardan, raqamli estetika insonning “sezgi-subyekti”dan “ma’lumot-subyekti”ga o‘tishini bildiradi - ya’ni, inson endi his qiluvchi emas, balki raqamli oqimni boshqaruvchi mavjudotga aylanadi.

Raqamli ong va estetik refleksiya

Raqamli estetika inson ongidagi refleksiv jarayonlarni ham o‘zgartiradi. Virtual muhitda inson o‘z estetik tanlovlarini doimiy ravishda qayta tahlil qiladi, natijada refleksiya jarayoni “ko‘p qatlamli ong” shaklida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, raqamli tajriba insonning ijodiy tafakkurini algoritmik fikrlash bilan uyg‘unlashtiradi. Shu bois zamonaviy estetik tafakkur ko‘p hollarda “interfeys estetika”, “post-estetik tafakkur” yoki “vizual gnoseologiya” deb talqin qilinadi.

Raqamli estetikada san‘at va texnologiya sintezi

Raqamli estetikaning eng diqqatga sazovor jihatlaridan biri - san‘at va texnologiyaning o‘zaro uyg‘unlashuvidir. Avvallari texnologiya asosan vosita sifatida qaralgan bo‘lsa, hozir u san‘atning o‘z mohiyatiga aylangan. Masalan, raqamli rassomlar algoritmik tasvirlar, 3D-modellashtirish, generativ neyron tarmoqlar yordamida o‘z asarlarini yaratmoqdalar. Bunday san‘at asarlarida inson ijodkorligi bilan mashina tafakkuri o‘rtasidagi nozik chegaralar yo‘qolmoqda.

Filipp Galanter o‘zining “Computational Aesthetics” maqolasida ta’kidlaganidek, kompyuter orqali yaratilgan estetik shakllar insonning estetik qaror qabul qilish jarayonini kengaytiradi va yangi tajribalarni keltirib chiqaradi. Shu jihatdan qaraganda, raqamli estetika - nafaqat san‘atdagi texnik yangilik, balki insonning estetik idrokini qayta shakllantirish jarayonidir.

Raqamli musiqada ham shunga o‘xshash o‘zgarishlar kuzatiladi. Elektron musiqa, sintezatorlar, sun‘iy intellekt orqali yaratilgan kompozitsiyalar estetik zavqni raqamli tovushlar orqali ifodalaydi. Bu o‘z navbatida “go‘zallik” tushunchasini texnologik shaklga olib kiradi. Bruno Mars yoki Billie Eilish kabi zamonaviy ijrochilarning musiqasida ham raqamli texnologiyalar vositasida yaratilgan ritm va tovushlar estetik ta’sirning ajralmas qismiga aylangan.

San‘at va texnologiya sintezi, Demartinoning fikricha, “inson tafakkurining yangi bosqichi - raqamli ong” ni shakllantiradi. Bu yangi ong estetik zavqni nafaqat ko‘rish yoki eshitish, balki interaktiv tajriba orqali his qilish imkonini beradi. Masalan, virtual reallik (VR) yoki kengaytirilgan reallik (AR) yordamida yaratilgan san‘at asarlari tomoshabinni estetik jarayonning faol ishtirokchisiga aylantiradi.

Xulosa

Raqamli estetika bugungi kunda nafaqat falsafaning, balki umuman inson tafakkurining markaziy yo‘nalishlaridan biriga aylandi. U estetik idrokni yangicha talqin etish, go‘zallik va ijodkorlik mezonlarini qayta ko‘rib chiqish zaruratini keltirib chiqardi. Madaniyat, san‘at va adabiyot - raqamli texnologiyalar ta’sirida o‘z hususiyatini yangi raqamli formatda namoyon qilmoqda.

Maqola davomida o‘rganilgan nazariy manbalarga tayangan holda quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral

Raqamli estetika - inson va texnologiya o‘rtasidagi falsafiy sintezdir. Bu sintez inson ijodiy tafakkurini mashina mantiqi bilan uyg‘unlashtirib, yangi estetik shakllar yaratadi.

Go‘zallik tushunchasi dinamik xususiyat kasb etdi. Endilikda go‘zallik faqat tabiiy va hissiy tajriba emas, balki algoritmik jarayonlar orqali ham ifodalanadi. Virtual reallik, sun‘iy intellekt, 3D san‘at va interaktiv media - estetik mavjudlikning yangi shakllaridir.

Raqamli estetikani o‘rganish falsafiy mas‘uliyatni ham talab qiladi. Texnologik go‘zallik - bu faqat zavq manbai emas, balki axloqiy, ijtimoiy va ontologik masalalarni ham o‘z ichiga oladi.

Shu boisdan, raqamli estetika sohasidagi tadqiqotlar quyidagi tavsiyalarni nazarda tutadi:

Universitetlarda “Raqamli estetika va san‘at falsafasi” nomli alohida kurslarni joriy etish lozim;

San‘atshunos va dasturchilar o‘rtasida ko‘p yo‘nalishli hamkorlikni kuchaytirish zarur;

Sun‘iy intellekt asosida yaratilgan san‘atni baholashda axloqiy-estetik mezonlar ishlab chiqilishi kerak;

Shunday qilib, raqamli estetika - bu inson ongining yangi shakli, raqamli davrning estetik ifodasidir. Uning mohiyati texnologiyani go‘zallik manbai sifatida qabul qilish va shu orqali insoniyatni aqliy bilishning falsafiy bosqichiga olib chiqishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Хайдеггер М. Вопрос о технике // The Question Concerning Technology. – New York: Harper & Row, 1954. – 35 с.

2. Манович Л. Язык новых медиа. – Кембридж: MIT Press, 2001. – 354 с.

3. Липовецкий Ж. Эстетизация мира. – Париж: Gallimard, 2005. – 412 с.

4. Туркл Ш. Одна вместе: Почему мы ожидаем больше от технологий и меньше друг от друга. – Нью-Йорк: Basic Books, 2011. – 376 с.

5. Бодрийяр Ж. Симулякры и симуляция. – Париж: Éditions Galilée, 1981. – 236 с.

6. Грау О. Виртуальное искусство: От иллюзии к погружению. – Кембридж: MIT Press, 2003. – 423 с.

7. Флориди Л. Логика информации: Философия как концептуальный дизайн. – Оксфорд: Oxford University Press, 2019. – 278 с.

8. Кант И. Критика способности суждения. – Кембридж: Cambridge University Press, 2000. – 294 с.

9. Соколов В. Рақамли эстетика: янги концептуал ёндашувлар // Фалсафа ва ҳаёт. – 2022. – №2 (15). – Б. 45–52.

10. Галантер П. Компьютерная эстетика: Искусство и наука эстетических вычислений // Leonardo Journal. – 2016. – Т. 49, №5. – С. 445–452.

11. Демартино А. Цифровое сознание и эстетика // Journal of Posthuman Studies. – 2020. – Т. 4, №2. – С. 110–128.

12. https://translated.turbopages.org/proxy_u/ru-uz.ru.35b6f91d-68ff3d0f-0ebc1345-74722d776562/https/ru.wikipedia.org/wiki/Эстетика_цифрового_искусства